

KOREYSLARDA JAMOA INSTITUTLARINING SHAKLLANISHI

Fozilova Salima Navro'zbek qizi
Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti Milliy g'oya manaviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Telefon raqam : +998 93 821 04 28

Elektron manzil: fzilovasalima9@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada yurtimizda bir necha yillar davomida istiqomat qilib kelayotgan koreyslarda jamoa institutlarining shakllanishi va bu tizimning milliy qadriyatlarimiz tizimi bilan o'zaro aloqalari haqidagi mulohazalar o'rin olgan.

KALIT SO'ZLAR: Millat, jamoa instituti, Choson, Mail jamoalari, Donsong mail,

KIRISH

Yurtimizda xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zaminda buyuk g'oya va sof niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashligi bag'rikenglikning yorqin namunasidir. Hozirgi kunda O'zbekiston 130 dan ortiq millat va elatlar vakillari uchun umumiy uy hisoblanadi. Mamlakatimizda 16 ta diniy konfessiya faoliyat ko'rsatmoqda. Chuqur o'ylangan milliy va diniy siyosat tufayli O'zbekiston bugun butun dunyo mamlakatlari uchun bag'rikenglik namunalarini o'zida mujassam etgan davlat sifatida namuna bo'lmoqda. Ma'lumki ko'p millat bir joyda yashashi oqibatida bir qancha etnik mojarolar kelib chiqadi. 130 dan ortiq millatni bir davlatda tinch –totuv yashashi bu O'zbekistonning buyuk siyosatidan darak beradi. YUNESKO tashkiloti tomonidan dunyoda tinchlik, dinlar va konfessiyalararo muloqotni ta'minlash, millatlar va elatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish borasida bir qator ishlar amalga oshirilib, hozirda bag'rikenglikka oid 70 dan ziyod xalqaro hujjatlar qabul qilingan. Ularning yorqin namunasi 1995-yil 16-noyabrda Parijda YUNESKO Bosh konferensiyasining 28-sessiyasida e'lon qilingan "Bag'rikenglik tamoyillari deklarasiyasi"dir. BMT Bosh Assambleyasining qaroriga ko'ra, 1997-yildan buyon mazkur sana butun dunyoda "Xalqaro bag'rikenglik kuni" sifatida nishonlanadi. 16 - noyabr – Xalqaro bag'rikenglik kuni munosabati bilan mamlakatimizdagi turli diniy konfessiya, millat va elat vakillari, xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlar mas'ullari ishtirokida xalqaro konferensiya o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, O'zbekistonda bir qancha millatlar yashab kelmoqda. Shu millatlar orasida

1937-yil deportatsiya natijasida kelib qolgan koreys millati ham uzoq yillar davomida O'zbekiston zaminida o'zbek xalqi bilan yaxshi aloqalarni yo'lga qo'yib, jamiyatimizda o'zining munosib o'rnini egallab kelmoqda. O'zbek va koreys millatining an'analar, qadriyatlar va turmush tarzidagi yaqinlik ularning yaxshi do'stligidan dalolatdir. Aynan mana shu yaxshi do'stlik siyosati ortidan koreys millatining oilaviy qadriyatlar tizimi, tili, an'analari, urf – odatlariga qiziqish uyg'ondi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Mavjud tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va koreys xalqlari tarixi, etnomadaniy an'analari, milliy madaniyatida ko'plab umumiy jihatlarga ega. Ya'ni har ikki millatga xos milliy mental xususiyatlar, oilaviy va jamoa institutlari tizimida ko'plab umumiy jihatlarni kuzatish mumkin.

O'zbek va koreyslarning an'anaviy moddiy madaniyatini qiyosiy tahlil qilish asosida ikki millat yashaydigan mintaqalarda tarqalgan marosimlarning etnologik tahliliga oid xulosalardan Janubiy Koreyadagi Markaziy Osiyo instituti joriy nashrlarida O'zbekiston va o'zbek xalqining tarixi hamda madaniyatini keng targ'ib etishda manbaviy asos bo'lib xizmat qilgan. Bu xorijda o'zbek tili, madaniyati va etnologiyasini o'rganish hamda oilaviy va taqvimiy marosimlarni etnografik materiallar asosida qiyosiy tadqiq etish hamda o'zbek madaniyatini Koreya Respublikasida keng targ'ib etishga xizmat qiladi. O'zbeklarda bo'lgan singari koreyslarda ham jamoa instituti, oila, va nikoh masalalariga jiddiy e'tibor qaratilgan. Jamoa instituti haqida koreys olimlarining tadqiqotlari orasida avvalo, Choson qirolligi va Yaponiyaning mustamlakachiligi davrida olib borilgan ilmiy izlanishlar bo'lib, ular asosan davlat siyosatini yanada mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan. Chunki Choson davrida konfutsiylik hukmron mafkuraga aylana digan aholining turmush tarzini konfutsiylik g'oyalariga moslashtirish uchun mustamlakachilik davrida esa Yaponiyaning Koreya hududida olib borgan mustamlakachilik siyosatini samarali targ'ib qilish maqsadida hukumatda mahalliy aholi haqida ko'proq ma'lumotlarga ega bo'lishga harakat qilingan. Koreys jamoa institutlari faoliyati koreys ijtimoiy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq. Choson davriga oid ilmiy adabiyotlar ichida "Choson sulolasi yilnomalari" asari ahamiyat kasb etadi. Ushbu asarda buyuk Choson sulolasining 472 yillik tarixi o'z ifodasini topgan. Bu asarda nafaqat Choson tarixini, balki, o'z davrdagi siyosati, diplomatiyasi, etnologiyasi, madaniyati, ijtimoiy hayoti, iqtisodiyoti, madaniyati, ta'lim-

tarbiyasini ham ko'rishimiz mumkin. Bu asar Choson davlatining qomusiy kitobi sifatida talqin qilingan. O'zbek va koreys xalqlarining an'anaviy institutlari hisoblangan mahalla va Mail jamoalarining tuzilishi va vazifasini o'zaro qiyosiy tadqiq qilishga shu birlashmalarning ikki xalqni kundalik turmush tarzi hamda madaniyatida tutgan o'rnini o'rganishda etnografik materiallar yordam beradi. Tarixdan ma'lumki, jamoa to'g'risida qadimgi mualliflar tomonidan turli fikr-mulohazalar bildirilgan. Antik davrning buyuk mutafakkiri Aristotel (mil.avv. 384–322) jamoani oilalarning yig'indisi sifatida baholab, uni tabiiy yaralish sifatida ta'riflagan bo'lsa bo'lsa, XIX asrning oxirida nemis sotsiologi F. Toyennis esa jamoa bilan assotsiatsiyani qo'shma jamiyat va foydali jamiyat deb qiyoslab, qon, makon va ma'naviy jihatlarda umumiylik kuzatiladigan qo'shma jamiyatni jamoa deb atagan edi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida o'zbek xalqida jamoa kishilarning qadimgi uyushuv shakli deb qayd etilgan bo'lsa, Janubiy Koryeyada esa birga yashash yoki bir xil faoliyat va maqsad uchun uyushgan yig'inga jamoa, deb ta'rif beriladi. Shu tariqa jamoa qaysi saviyada bo'lishiga qaramasdan, bitta ijtimoiy birlik asosida birdamlikni namoyish qiladigan tushuncha sifatida qo'llaniladi. Shu bois, jamoaning eng muhim uchta asosi – geografik maydon, o'zaro ijtimoiy ta'sir va umumiy rishtaga alohida e'tibor qaratiladi. Koreyslarda ham an'anaviy jamoaviy institutlar uzoq tarixga ega bo'lib, ularning Mail jamoasi ham o'zbek mahallasiga o'xshash kichik ma'muriy-hududiy birlik hisoblanadi. Tarixan Mail koreyslar ijtimoiy hayotining asosiy birligi va shaxsning jamoadagi ijtimoiy o'rnini belgilashda birlamchi manba deb sanalganligi uchun koreyslar orasida mashhur bo'lgan.

Koreyslarda ilk mail jamoalari neolit davrida shakllangan. Ushbu davrda kishilarning ishlab chiqarish vositalariga umumiy egalik qilishi, jamoaviy mehnat qilishi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarni teng taqsimlashi mail jamoasining paydo bo'lishida yetarlicha sharoit yaratgan bo'lib, shu yo'l bilan dastlabki ibtidoiy mail jamoalari tashkil topgan. Arxeologik manbalarning guvohlik berishicha, neolit davriga oid Bongsan-gun Masan-ri yodgorligi va Musan-gun Bomigusok yodgorligida o'nlab uy manzilgohlari aniqlangan. Mail koreyslar tarixida umr kechirishning muhim birligi hisoblangan. Maillar geografik joylashuviga yoki aholining asosiy xo'jaligiga ko'ra, bir necha toifalarga bo'linadi. Ammo, Choson qirolligi davri (1392–1910)da konfutsiylikning ta'siri natijasida patriarxal madaniyat o'rnatilib, ota sulolasiga jiddiy e'tibor qaratilgan. Konfutsiylikning asosiy g'oyalari uning "Samgang-

o'ryun ” deb nomlangan axloqiy ko'rsatmalarida yaqqol namoyon bo'ladi. “Samgang – konfutsiy axloqiy mafkurasining asosi bo'lgan uchta tamoyil bo'lib, mazkur tamoyillarga asosan amaldorlar uchun qirol, farzandlar uchun ota-ona, xotin uchun eri boshliq ekanligi ta'riflanadi. “O'ryun ” esa konfutsiylik axloqiy mafkurasining asosi bo'lgan 5ta insoniy munosabatni anglatadi. Ya'ni, ota-ona o'z farzandlariga mehribon bo'lishi, farzandlar esa o'z navbatida ota-onasiga xizmat qilishi kerak, qirol va amaldorlar o'rtasida sadoqat saqlanishi kerak, er-xotin o'z vazifasini oqilona bajarishi kerak, yoshi ulug'lar va yoshi kichiklar o'rtasida tartib saqlanishi kerak, do'stlar o'rtasida ishonch bo'lishi kerak. Choson davridan buyon koreyslar ushbu mafkuraga rioya qilib hayot kechirishga majbur bo'lgan. Shu sababli XVI asrgacha gender tengligida yashagan koreyslar hayotiga konfutsiylikning kirib kelishi ayollar mavqeining keskin tushib ketishiga va o'g'illarni qizlardan afzal ko'rish tendentsiyasining kuchayishiga sabab bo'lgan¹. Shu sababli koreyslar o'rtasida qondoshlikka asoslangan ko'plab yangi jamoalar shakllanib, Maillar ikki toifaga bo'lingan. Ulardan biri mazkur “qondoshlik” me'yorlariga asoslanib tashkil etilgan jamoa bo'lib, bunday tuzilma Dongsong Mail deb atalgan. Ushbu Mail aholisining asosiy qismi bitta familiyali, ya'ni bir ota urug'idan kelib chiqqan bo'lib, ular o'z jamoasining hukmron sinfida boshqa urug'dan bo'lgan a'zolariga boshchilik qilgan. Ikkinchisi esa kishilarning qon-qarindoshlik aloqalaridan qat'iy nazar, boshqa bir omil asosida shakllangan jamoa bo'lib, Gaksong Mail deb nomlangan. Ushbu jamoa ko'p hollarda kishilarning yashayotgan “yer”i asosida tashkil topgan. Shu bois, Mailga boshchilik qilishda urug'chilik me'yorlariga amal qilinmagan va asosan, jamoani oddiy kishilar boshqargan. Shuning uchun ularning moliyaviy holati Dongsong Mailga nisbatan yaxshi bo'lmagan, lekin ushbu jamoada barcha barobar bo'lgan. Hashar – “to'planmoq”, “birlashmoq”, “jipslashmoq” ma'nolarini anglatuvchi arabcha “hashr” so'zidan kelib chiqqan bo'lib biror ishni birgalashib bajarishda beriladigan ixtiyoriy yordamni anglatadi. O'zbeklar hashar orqali mahallaning turli jamoat ishlariga o'z shaxsiy ishidek yondashib, bamaslahat tayyorgarlik ko'radi. Bunday jihatdan hashar koreyslarning “Durye” va “Pumashi” an'anasiga juda o'shab ketadi. “Durye” qisqa vaqt ichida bir odam bajarishi qiyin bo'lgan ishlarga Mail a'zolari hamjihatlikda yordam ko'rsatadigan

¹ Yun Shi Ne. Globalshuv davrida o'zbek va koreys xalqlari jamoa institutlari va marosimlaridagi o'zgarishlar: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan desertatsiyasi- Toshkent 2020. 21-22b.

koreyslarning o'ziga xos urf-odatlaridan biridir. "Durye" so'zining kelib chiqishi borasida bir necha qarashlar mavjud. Kim Gi Sob o'z asarida ushbu so'zning kelib chiqishini uchta so'z bilan bog'lab izohlaydi. Birinchidan, "o'ramoq" ma'nosini anglatuvchi "degan so'zdan olingan, deb qaraydi. Chunki, qaysidir makonni "o'rab olish" orqali uning ichkarisi va tashqarisini ajratish mumkin. Aynan ushbu ma'noda Durye muayyan chegara ichidagi aholining birlashmasi ekanligini anglatgan. Ikkinchidan, butun jamoa ahli uchun amal qilinganiga "butunlay" yoki "to'liq" degan ma'noni anglatuvchi so'zdan, uchinchidan, jamoa ahliga navbatma-navbat yordam berilganiga "aylanmoq" yoki "tartibda bajarilmoq"ni anglatuvchi so'zidan olingan². Lekin, hashar oilaviy marosimlardan xo'jalik ishlarigacha keng foydalanilgan bo'lsa, Durye faqat dehqonchilik ishlarida, "Pumashi" esa ko'proq oilaviy marosimlarda amalga oshirilgan.³

"Pumashi"da Pum so'zi "mehnat kuchi"ni, ashi esa "berib turish va qaytarib olish"ni anglatadi, ya'ni "berilgan yordam teng qaytarilishi kerak", degan g'oya asosida shakllangan odatidir. Demak, Durye sholikorlikdagi eng tig'iz paytda butun Mail ahlining ishtirokida o'tkazilgan. Pumashi esa mavsumga bog'liq bo'lmay, zaruratga ko'ra individual shahslar orasida amalga oshirilgan. Durye sholi ekish samarali va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun tashkillashtirilgan Mail a'zolarining mehnat jamoasidir. Pumashi esa "insoniyatning mehnat kuchi teng" degan shior ostida ham xo'jalik ishlari, ham oilaviy marosimlarda amalga oshirilgan. Ammo, Pumashida berilgan yordamni shunga teng qaytarish kerak, degan "yozilmagan qonun" mavjudligi bois, bunda ho'kiz olib turilgan bo'lsa, keyinchalik ho'kiz berib turishga to'g'ri kelgan. Shuningdek, Pumashi qonun-qoidalariga ko'ra, ushbu odatda odamning yoshi yoki jinsiga e'tibor berilmagan, ya'ni erkakning ko'magini ayol yoki bola yordami bilan qaytarish ham mumkin bo'lgan. Pumashi odati ham hozirgacha saqlanib qolgan bo'lsada, vaqt o'tishi bilan ushbu odat ham qisqarib bormoqda. Janubiy Koryeya Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 1980 yilda Pumashi bilan erkaklar 84.7 soat, ayollar 86.4 soat shug'ullangan bo'lsa, 2005 yilda erkaklar 18.2 soat, ayollar esa 27.9 soat band bo'lgan. Ya'ni, 25 yil ichida Pumashi bilan shug'ullanish vaqti 79% dan 68% ga

² Youngbae Li. "Dure xotirasi va umumiy hayajon" ning siyosati va madaniy ma'nosi. Milliy xalq muzeyi. Folklor tadqiqotlari. № 27. 2010. – 70 bet.

³ Globallashuv davrida o'zbek va koreys xalqlari jamoa institutlari va marosimlaridagi o'zgarishlar.07.00.07-" Etnografiya, etnologiya va antropologiya".TOSHKENT-2020.

kamaygan. Demak, ushbu ko'rsatkich bugungi kunda koreyslar o'rtasida qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari birmuncha zaiflashganligidan dalolat beradi. Hashar, Durye va Pumashi o'zbek hamda koreys xalqlarining o'ziga xos xususiyatlari to'la namoyon bo'lgan jamoa a'zolarining o'zaro yordam ko'rsatish an'anasidir. Shuning uchun ham mazkur har uch an'anada ko'lami va tartib-qoidasi jihatidan farqlar mavjud bo'lsa-da, mazmunan ularning barchasi yaxshi qo'shnichilikka asoslanganligi bois ayrim umumiy xususiyatlarga ham ega. Birinchidan, har uch odat beminnat va bepul bajarilgan. O'zbek va koreys xalqlari ushbu an'analarni jamoa qurib yashashning bir omili sifatida qabul qilgan, ya'ni beminnat yordam berishga har ikki xalq ham savob ish, hayot kechirishning o'ziga xos ko'rinishi deb qaragan. Ikkinchidan, har uch odatda berilgan yordamga moddiy manfaatdorlik sifatida qaralmagan. Asosan, bunday odatlarda jismoniy va ma'naviy jihatdan yordam almashinganligi uchun, agar yordam qaytariladigan bo'lsa, berilgan ko'makka barobar jismoniy va ma'naviy sifatda javob berilgan hamda ushbu holat jamoaning foydasini ko'zlab amalga oshirilgan. Uchinchidan, yordam berilayotgan xonadonda turli taomlar tayyorlangan.

Koreyslarda ham o'ziga xos jamoaviy institut hisoblangan Maillarda aholining o'zini-o'zi boshqarishiga Yuji (oqsoqol) rahbarlik qilgan. Yujining yetakchiligi bilan Donggye Koreyslarda donggye – Mailning turli tadbiri va marosimlarini o'tkazish maqsadida Mail ahlidan to'plangan mol-mulklarni umumiy mulk tarzda boshqarishga uyushgan Mail jamoasining o'zini-o'zi boshqarish yig'ini bo'lgan. Dongsong Mailda esa jamoa rahbari Yuji emas, balki qarindoshlik asosida hal etilgan. Zotan, Dongsong Mailning tarixiy asoslari milodiy IV–VII asrlarga borib taqaladi. Koreys an'anasiga ko'ra, Dongsong mailning rahbarligi saylov yo'li bilan emas, balki Jongsonning to'ng'ich o'g'illari orqali ajdodlardan avlodlarga o'tgan. Jongson o'z jamoasida ajdodlar ruhiga bag'ishlangan marosimlarni rejalashtiradigan va bunday marosimlarni boshqaradigan shaxs hisoblangan. Qolaversa, u jamoaga tegishli bo'lgan yerlar va tog'lar kabi umumiy mulklarni boshqarishda ham ma'lum ta'sirga ega bo'lgan. Aynan shunday vazifalar tufayli Jongson jamoa a'zolari orasida yetakchi sifatida tan olingan.

Hozirda koreys xalqining an'anaviy jamoatchilik munosabatlari ba'zi qishloq va kichik shaharlardagina saqlanib, megapolis yoki sanoatlashgan shaharlarda esa deyarli yo'qolgan. Bu borada bir qator olimlar ham so'nggi paytlarda koreyslarda jamoa ruhi deyarli yo'qolib ketyotganligini aytishgan. Qolavyersa, 2014 yildagi davlat statistika ma'umotlariga ko'ra,

Janubiy Koreyada barcha aholining 91.66% shaharlarda istiqomat qilayotganligidan ham an'anaviy jamoatchilik aloqalari ancha zaiflashganini ko'rish mumkin. Janubiy Koreyada g'arblashish ta'sirida kirib kelgan individualizm va sanoatlashish hamda shaharlashish jarayonlari koreyslarning an'anaviy dunyoqarashi, kundalik hayotini butkul o'zgarishiga sabab bo'ldi. Bu borada an'anaviy mail jamoasining zaiflashuvi ham tezlashdi.⁴

XULOSA

Xususan, koreyslarning Mail jamoasi oxirgi paytda sanoatlashish va shaharlashish jarayonlari ta'sirida shaklan buzilib, tarqalib ketdi. Biroq, mahalla va Mail jamoalari o'z xalqining kundalik hayotidan chuqurroq o'rin egallagani va jamiyatning turli masalalarini hal etishga qodir bo'lgani uchun ushbu jamoalarni saqlab qolishga harakat qilinmoqda. Mahalla va Mail jamoalari bugungi kunda ham o'zbek hamda koreys xalqlarining eng muhim maskani bo'lib, har ikki xalqning jamoatchilik hayotini davom ettirib kelmoqda. Ushbu ikki jamoa hech qachon har ikki xalqning tarixidan olib tashlanmaydi yoki yo'qolib ketmadi. Bu esa o'zbek va koreyslarida jamoalarning o'ziga hos o'rni bor, degan xulosaga undaydi. Shundan kelib chiqib, an'anaviy urf-odatlarini saqlab qolish va zamonaviy ijtimoiy muammolarni bartaraf etish uchun o'z mintaqasiga xos bo'lgan an'anaviy jamoa institutlarini tiklashga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Shu munosabat bilan bugungi kunda mahalla va Mail jamoalarining eng muhim vazifalaridan biri – o'zbek va koreys xalqlarining an'analarini asrab-avaylab kelajak avlodga yetkazish, desak mubolag'a bo'lmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yun Shi Ne. Globalshuv davrida o'zbek va koreys xalqlari jamoa institutlari va marosimlaridagi o'zgarishlar: Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiyasi- Toshkent 2020. 21-22b.
2. Kim Heung-Soon. Saemaul Harakatini modernizatsiya loyihasi sifatida tanqidiy tekshirish. Koreya mintaqaviy taraqqiyot jamiyati. Koreya mintaqaviy taraqqiyot jamiyati jurnali. 12 (2). 2000. – 35–36-betlar.
3. Youngmin Yoon. Virtual hamjamiyat va jamoa. Koreya sotsiologiya assotsiatsiyasi simpozium ma'ruzalari. – 1999. – 158–159-betlar.
4. Youngbae Li. "Dure xotirasi va umumiy hayajon" ning siyosati va madaniy ma'nosi. Milliy

⁴ Koreya Respublikasi Prezidenti Mun Chje Inning "Xalq so'zi" gazetasiga bergan intervyusi. Xalq so'zi. 2019 yil 18 aprel. <http://xs.uz/uzkr/post/prezident-mun-chzhe-in-koreya-respublikasi-va-o'zbekiston-respublikasining-zadal-yaqinlashuvi-zamirida-do'stlik-va-ishonch-munosabatlari>.

xalq muzeyi. Folklor tadqiqotlari. № 27. 2010. – 70 bet.